


NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- oktabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 194 tani tashkil etadi, shundan 21 650 tasi yoki 82,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,9 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 97,0 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	26 194	21 814	21 650
2024	26 745	22 493	22 234
2023	27 877	23 566	23 409
2022	35 993	31 619	31 442
2021	34 862	30 526	30 378

Tumanlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Namangan shahrida – 31,3 foiz, Chust tumanida – 8,5 foiz, Pop – 7,4 foiz, Chortoq – 6,4 foiz, To'raqo'rg'on – 6,2 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonidagi salmoqli ulushi Namangan shahrida – 85,1 foiz va 84,2 foiz, Chust – 84,4 va 83,7 foiz, Namangan – 84,0 foiz va 83,6 foiz hamda Chortoq – 82,8 foiz va 82,4 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Mingbuloq tumani	1 467	1 215	1 205
Kosonsoy tumani	1 496	1 209	1 204
Namangan tumani	1 516	1 274	1 267
Norin tumani	1 425	1 169	1 163
Pop tumani	1 935	1 568	1 562
To'raqo'rg'on tumani	1 623	1 355	1 342
Uychi tumani	1 504	1 248	1 236
Uchqo'rg'on tumani	1 575	1 293	1 284
Chortoq tumani	1 672	1 384	1 378
Chust tumani	2 233	1 884	1 869
Yangiqo'rg'on tumani	1 549	1 237	1 236
Namangan shahar	8 199	6 978	6 904
Shundan Davlatobod t.	2 274	1 935	1 914
Yangi Namangan	2 119	1 864	1 845

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- oktabr holatiga 33,7 foizni (40,5 foiz va 40,6 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,0% (19,1% va 19,0%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 6,4% (7,6% va 7,6%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 685	1 660	1 653
Sanoat	4 183	4 177	4 121
Qurilish	1 344	1 329	1 322
Savdo	8 828	8 826	8 799
Tashish va saqlash	962	961	957
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 325	1 323	1 318
Axborot va aloqa	375	343	343
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	913	678	673
Boshqa turlar	6 579	2 517	2 464

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 21 814 ta faol tijorat korxonalaridan 17 757 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosa ***Tadbirkorlik subyektlari***

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	17 757	81,4
Xususiy korxonalar	2 977	13,7
Oilaviy korxonalar	889	4,1
Aaksiyadorlik jamiyati	12	0,1
Boshqalar	179	0,8

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 245 ta korxonalardan 98 tasi qo'shma korxonalar va 147 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 41 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasida 51 tadan 64 taga (o'sish 13 taga), qurilish sohasidagi korxonalar sonining 10 tadan 16 taga, (o'sish 6 taga) va sanoat sohasida 89 tadan 94 taga (o'sish 5 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	245	105	150
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22	9	13
Sanoat	99	45	54
Qurilish	14	6	8
Savdo	64	24	40
Tashish va saqlash	8	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	1	4
Axborot va aloqa	7	3	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	4	4
Boshqa turlar	28	9	19

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 62 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,3 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (20,3%), Turkiya (15,8%), Janubiy Koreya (7,5%) va Qozog'iston (4,5%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	264	111	153
Xitoy	65	22	43
Rossiya	53	22	31
Turkiya	41	11	30
Janubiy Koreya	20	8	12
Qozog'iston	13	10	3
Tojikiston	11	8	3
Hindiston	4	3	1
Qirg'iz.Respublikasi	5	3	2
Germaniya	5	4	1
Eron	4	1	3
BAA	4	1	3
Ozarbayjon	6	3	3
Isroil	2		2
Yaponiya	3	3	
Italiya	2	2	
Niderlandiya	4	2	2
Pokiston	2		2
Boshqalar	20	8	12

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

A. Siddiqov
69 211-72-00 (5060)

Maznil:

160133, Namangan sh.,
N.Namangoniy ko'chasi, 14
